

Lafasova Mavjuda Tulqin qizi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi
mavjudalafasova990@gmail.com

ABDULLA ORIPOVNING O'XSHATISHLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya

Maqolada badiiy asar matnida muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Tilshunoslikda umumnutq va badiiy o'xshatishlar va ularning o'ziga xosliklari haqida turli mulohazalar keltirilib izohlanadi. Abdulla Oripovning o'xshatishlardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: o'xshatish, o'xshatishlarning turlari, tashbeh, o'xshatish vositasi

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida tilni shaxs omili bilan birga tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar hajmi tobora oshib bormoqda. Antroposentrik yo'nalishdagi tadqiqotlarning aksariyatini lingvokulturologiya masalalariga bag'ishlangan izlanishlar tashkil etadi. Turli tizimdagi tillarning lingvokulturologik xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlar nisbatan ko'p miqdorni tashkil etadi. Madaniyatlararo muloqotda turli til oilalariga mansub kommunikatsiya vositalarining farqli jihatlari aniq ko'zga tashlanadi. Turli tizimdagi tillarning o'zaro farqli belgilari aks etgan tasviriy vositalardan biri o'xshatishlardir. O'xshatishlar har bir tilning o'ziga xos qiyoslash imkoniyatini ko'rsatuvchi tasvir usullari bo'lib, qiyoslash etalonlari hamda vositalari jihatidan o'zaro farqlanadi. O'xshatishlar tildan foydalanuvchilarning qiyoslash tamoyillari va asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida tillar o'rtasidagi o'xshatish vositalari, usullari chog'ishtirma hamda qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tillar o'rtasidagi o'xshatish

etalonlari, vositalari, tafakkur bilan bog'liq asoslari qiyosiy tahlillarda aniqlanadi. Tillar o'rtasidagi universal va unikal o'xshatish belgilarini ajratishda qiyosiy hamda chog'ishtirma aspektdagi tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotlarda tillarga xos o'xshatish belgilari ajratilgan va tahlil etilgan.

O'xshatishlar badiiy uslubda namoyon bo'ladi va badiiy matn o'xshatishlarni yuzaga chiqaruvchi omil sifatida ahamiyatlidir. Badiiy matnda xalqda qabul qilingan va umumxalq tafakkuri orqali idrok etilgan o'xshatishlar o'z ifodasini topadi. Bunday tasvir ifodalari muallifning badiiy mahorati orqali obrazli tasvir va ta'sirchan ifodalar yaratishga xizmat qiladi.

Badiiy matnda umumxalq o'xshatishlari bilan bir qatorda muallif iqtidori, so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq holda okkazional o'xshatishlar ham uchraydi. Bunday o'xshatishlar badiiy matnning obrazlilik hamda tasviriyligini ta'minlash bilan bir qatorda ijodkorning so'z qo'llash va badiiy mahoratidan dalolat beradi. Shu bois muayyan bir muallif ijodiga xos o'xshatishlarni tadqiq etish umumxalq o'xshatishlari, umummilliy ifodalar bilan bir qatorda muallif iqtidori va badiiy nigohi bilan belgilanuvchi qiyoslarni aniqlash imkonini beradi.

O'xshatishlarning mazmuni, mohiyati, vositalari va yuzaga chiqish omillari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. O'xshatishning qadimiy shakllarini o'rta osiyolik qomusiy olimlarning asarlarida, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Alisher Navoiyning "Muhokamat ul - lug'atayn" asarlarida uchramiz. O'xshatishlarning nazariy asoslari leksikogiyaga oid adabiyotlarda, M.Mukarramov¹, D.Xudoyberganova², M.Yoqubbekova³, F.Usmonov⁴, Jo Mi Yong⁵ tadqiqotlarida tahlil etilgan. O'xshatishlarga bag'ishlangan tadqiqotlarda, asosan, o'zbek xalqi muloqotida turg'un bo'lgan

¹ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. —Тошкент: Фан, 1976. —88 б.

² Худойберганова Д. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. —Ташкент, 1989. —127 с.;

³ Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. —Тошкент: Фан, 2003.

⁴ Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан...фалс. д.-ри...дисс.-Тошкент, 2020. —150 б.;

⁵ Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан...фалс. д.-ри...дисс. автореф. —Тошкент, 2023. —24 б.

o'xshatishlar tadqiq etilgan. O'xshatishlarning muallif mahorati bilan bog'liq ta'sirchanlik xususiyatlari, individual o'xshatish ko'rinishlari tadqiq etilmagan.

Abdulla Oripov ijodida aks etgan umumtil o'xshatishlarining tasviriylkdagi o'rni beqiyosdir, ijodkorning so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq o'xshatishlar soni salmoqlidir. O'xshatishlarga asos bo'lgan milliy baho va munosabat tahlilga ehtiyoj sezadi. Ijodkor tomonidan qayta ishlangan, original o'xshatishlarda emotsional-ekspressivlik va obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi. Ular badiiy asarning barcha komponentlari: ruhiy kechinma, portret, nutqiy tavsif, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Boshqa ijodkorlar qatori Abdulla Oripov she'riyatida ham o'xshatishlardan unumli foydalaniladi. Shoir ijodida quyidagicha o'xshatishlarni kuzatamiz:

*Hayot mendan ayamadi ne'matlarini,
Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.
Faqatgina bir g'am o'rtar yuraklarimni,
Men muhabbat taqdirimdan maqtanolmayman.
Bolalikdan o'tib men ham bo'y yetib sekin,
Goho pinhon, goho asov daryoday toshib,
Bir yosh yigit sevganchalik sevdimu, lekin
Boshqalarday tole menga bo'lmadi nasib.*

Shoir yana bir o'rinda quyidagicha o'xshatish qiladi:

***Romeoday o'linga ham tayyorman u kez,**
Qotillik ham qilay, mayli, **Otello monand.**
Faqat sen kel, yuragimda armon bo'lgan his,
Sensiz hayot puch bir narsa, ermak, omonat...*

Ijodkorlar o'rtasida sevgan yorini ohuga, gulga o'xshatish ko'plab uchraydi, Abdulla Oripov esa o'z sevgan yoriga nisbatan quyidagicha o'xshatish qiladi:

*Sen ilohiy farishta misol,
Paydo bo'lsang ko'zim o'ngida.
Unutaman o'tmishni darhol,
Unutaman kelajakni-da.*

Abdulla Oripov she'riyatida xalqona o'xshatish namunalarini ham ko'plab uchratish mumkin:

Sen ketdingu, qalbingning

Izi qoldi yodimda,

Sutday oydin kechaning

O'zi qoldi yonimda...

O'xshatishlar ijodkorning o'ziga xos obrazli tafakkur tarsi mahsuli o'laroq yuzaga kelganligi bois ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ta'sirchanligi, ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi:

Bir zum ko'zlarimdan yo'qoldi uyqu,

Bir zum bahor kabi yorishdi olam.

Bir zum xayolimdan chekindi qayg'u,

Bir zum yuragimdan ketdi g'am-alam.

Shoir lirik qahramonning ichki ruhiyatini, qalb tug'yonini tasvirlashda o'ziga xos o'xshatishlardan foydalanadi:

Men faqat sen uchun yashadim desam,

Bir oz lof bo'lardi va bir oz yolg'on.

Gohi bosganida to'fon kabi g'am,

Ko'zimga ko'ringay o'zimdagi jon.

Badiiy asarlarda o'xshatishlardan foydalanish asarning badiiy qimmatini oshiradi, bu asar ohorliligi bilan o'quvchini o'ziga rom etadi:

Yana keldi erkatoy ko'klam

Yoshlikday sho'x, nurday yugurik.

Lingvopoetik salmoq, badiiy-estetik qimmat nuqtayi nazaridan o'xshatishlar ijodkorning mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Ijodkor o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq turli o'xshatishlar yaratadi:

U istasa, metin toshlarni

Sovuradi tuproq, kul kabi.

Ammo yorning yuzida u qo'l

Siypalanar mayin gul kabi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'xshatishlar shu tilda so'zlashuvchi til egalarining fikrlash tarzi, ijodiy tafakkuri va milliy mentalitetining o'ziga xosligini, shuningdek, tilning yaratuvchilik imkoniyatlarini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlik sifatida o'ziga xos badiiy-estetik qimmatga ega. Umuman olganda, o'xshatishlar nafaqat ma'lum bir ijodkorning, balki butun bir xalqning ijtimoiy, ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiruvchi vositadir. Abdulla Oripov ijodida ham o'xshatishlar shoirning badiiy mahoratini yaqqol aks ettiruvchi vosita sifatida alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан...фалс. д.-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2023. –24 б.
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Тошкент: Фан, 1976. –88 б.
3. Худойберганава Д. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1989. –127 с.;
4. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларида ўхшатиш. –Тошкент: Фан, 2003
5. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан...фалс. д.-ри...дисс.-Тошкент, 2020. –150 б.;